

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi 103

I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar 106

B.A.Abduvealiyev, I.I.Zokirov

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari 109

T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri 115

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaliviy tur tarkibi 118

S.Sh.Axmadjonova

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari 122

V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari 125

GEOGRAFIYA**M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduvealiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish 132

X.Sh.Djo'rabyeva

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri 137

N.O'.Komilova

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati 141

A.A.Xamidov

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri 148

QISHHLOQ XO'JALIGI**Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari 153

Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) 158

Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gaziyev

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir 164

M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi 168

R.Djurayev

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi 172

R.Djurayev

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni 177

ILMIY AXBOROT**D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida 181



UO'K: 94-055.2(575.171)

CHORVACHILIK VA UNING SOVET DAVLATI XALQ XO'JALIGIDA TUTGAN O'RNI**СКОТОВОДСТВО И ЕГО РОЛЬ В НАРОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА****LIVESTOCK AND ITS PLACE IN THE SOVIET STATE'S NATIONAL ECONOMY****Ravshan Djurayev** 

O'zbekiston milliy universiteti dotsenti Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya

Dunyo miqyosida Markaziy Osiyoda chorvachilik sohasining rivojlanish jarayoni va bosqichlari, sovet hokimiyatining kollektivlashtirish siyosati va uning agrar tarmoqqa ta'siri, sovet davrida chorvachilikka ixtisoslashtirilgan sovxozi tarixi, chorvachilik va chorvadorlarning hayotini etnografik nuqtayi-nazaridan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklarda agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojantirish, aholi xo'jalik hayotida chorvachilikning rollini oshirish, hududlardagi yaylov yerlar va ulardan samarali foydalanish, aholiga yetkazib beriladigan go'sht va sut mahsulotlari sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan ishlarni amalga oshirilmoqda. Tadqiqotning maqsadi sovet hokimiyat davrida O'zbekiston SSRda chorvachilik tarmog'i va sohada yuz bergan o'zgarishlarni ochib berishdan iborat. Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoviy – xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan xolda yozilgan. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarning chorvachilik sohasiga ta'siri tarixshunoslikda ilk bor sovet yillari doirasida o'rganilib, aniqlangan muammolar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan; O'zbekiston SSRda chorvachilik tarixiga doir arxiv hujjatlari, statistik mal'umotlar va davriy matbuot materiallarini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish asosida hududda mazkur tarmoq tarixini o'rganishning nazariy konseptualni ishlab chiqilgan.

Аннотация

На мировом уровне проводятся научные исследования по процессу и этапам развития животноводческой отрасли в Средней Азии, коллективизационной политике советского правительства и ее влиянию на аграрный сектор, истории совхозов, специализирующихся на животноводстве, в советскую эпоху, а также этнографический аспект скотоводства и быта скотоводов. Осуществляется развитие аграрного и пищевого секторов в животноводческих хозяйствах, повышение роли животноводства в хозяйственной жизни населения, эффективное использование пастбищных угодий в регионах, повышение качества поставляемой населению мясной и молочной продукции. Цель исследования – выявить изменения, произошедшие в животноводческой отрасли и промышленности Узбекской ССР в советский период. Статья написана с использованием принципов историчности, системности, объективности, цивилизационного подхода к проблеме, а также методов сравнительного и проблемно-хронологического анализа. Практические результаты исследования заключаются в следующем: в рамках советских лет впервые в историографии изучено влияние политических и экономических изменений на отрасль животноводства, разработаны предложения и рекомендации по выявленным проблемам. На основе выявления и сравнительного анализа архивных документов, статистических данных и материалов периодической печати по истории животноводства в Узбекской ССР разработаны теоретические концептуальные основы изучения истории этой отрасли в регионе.

Abstract

At the world level, scientific research is being carried out on the development process and stages of the cattle breeding sector in Central Asia, the collectivization policy of the Soviet government and its impact on the agrarian sector, the history of state farms specializing in cattle breeding in the Soviet era, and the ethnographic perspective of cattle breeding and the life of cattle herders. Development of agrarian and food sectors in livestock farms, increasing the role of livestock in the economic life of the population, effective use of pasture lands in the regions, and improvement of the quality of meat and dairy products delivered to the population are being carried out. The purpose of the research is to reveal the changes that took place in the livestock industry and industry in the Uzbek SSR during the Soviet period. The article is written using the principles of historicity, systematicity, objectivity, and a civilizational approach to the problem, as well as the methods of comparative and problem-chronological analysis. The practical results of the research are as follows: the impact of political and economic changes on the livestock sector was studied for the first time in historiography within the framework of the Soviet years, proposals and recommendations were developed on the identified problems; On the basis of identification and comparative analysis of archival documents, statistical data and

periodical press materials on the history of animal husbandry in the Uzbek SSR, the theoretical conceptual basis for studying the history of this industry in the region has been developed.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyyati, chovachilik, xalq xo'jaligi, yilqichilik, qoramollar, yaylovlari, yer ozuqasi.

Ключевые слова: Советская власть, животноводство, народное хозяйство, животноводство, крупный рогатый скот, пастбища, кормовая земля.

Keys words: Soviet power, animal husbandry, national economy, livestock, cattle, pastures, land fodder.

KIRISH

Qadimdan chovachilik sohasi har bir xalqning muhim xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lib, jamiyat hamda davlat iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligini ta'minlashda asosiy omil hisoblangan. Respublikaning tabiiy geografik joylashuvni chovachilikni rivojlanishi uchun qulay hudud bo'lib, respublikada azaldan bu sohada yutuqlarga erishib kelingan. Sovet davlatining bu sohada olib borgan siyosati natijasida ma'lum bir qiyinchiliklarni vujudga keladi.

Chovachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini ish hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya, bug'-u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go'sht, yog', tuxum va boshqalar), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo'yna va h.k.), dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlash maqsadida chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanadi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chovachilikning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, cho'chqachilik, quyonchilik kabilari hisoblanadi. Jahon mamlakatlarda tabiiy iqlim sharoitlari va ozuqa bazasiga ko'ra chovachilik rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jahon chovachiligidagi (mln. bosh) qoramol 1338,2; qo'y 1068,6; echki 709,8; buyvol - 158,6; ot - 61,095; xachir - 14,1; eshak - 43,4; tuya - 19,1; cho'chqa - 912,7; tovuq - 14139; kurka - 244 kabilar boqiladi va ulardan turli mahsulotlar yetishtirish muhim o'rinda turadi[2].

Chovachilik inson tomonidan yovvoyi hayvonlarni ovlash va ularni xonakilashtirish maqsadida qo'lga o'rgatishdan boshlangan. Arxeologik dalillar hayvonlarni xonakilashtirish yangi tosh davrida - neolitda bundan 15-10 ming yil avval boshlanganini ko'rsatadi. Bu davrda odam takomillashtirish tosh qurollarga ega bo'lgan, olovni bilgan va sopol idishlardan foydalangan. Eng avval it, so'ngra cho'chqa, qo'y va keyinchalik qoramollar va otlar (7-8 ming yillar ilgari) xonakilashtirilgan. Osiyoning janubi-g'arbiy qismi va O'rta yer dengiz atroflari hayvonlarni xonakilashtirishning asosiy markazlari hisoblanadi. Yevropada qoramollar, ot, qo'y, echki, cho'chqa, quyon, it, parrandalardan o'rdak va g'ozlar, Osiyoda buyvol, qo'tos, or'kachli va or'kachsiz tuyalar, qoramol, echki, qo'y, cho'chqa, ot, it, quyon, tovuq, o'rdak, g'oz va tovuslar xonakilashtirilgan. Afrikada qoramollar, bir or'kachli tuya, eshak, cho'chqa, mushuk, it, sesarka tovuqlar, qo'y va echkilar qo'lga o'rgatilgan. Amerikada or'kachsiz tuyaning ikki turi - lama va alpaka, dengiz cho'chqasi, kurka va muskus o'rdaklar xonakilashtirilgan. Natijada inson tomonidan ularning sifat va son ko'rsatkichlariga ahamiyat berilib, hayvonlardan nasl olish, sekin-asta mahsulot yo'naliishlari bo'yicha zotlari chiqarilgan[3].

Maqola tarixiylik, tizimlilik, xolislik tamoyillari hamda muammoga sivilizatsion yondashuv, qiyosiy va muammoiy – xronologik tahlil usullaridan foydalilanilgan xolda yozilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta Osiyo hududi ham chovachilik dastlab shakllangan hududlar qatoriga kiradi. Chovachilik ko'chmanchi hayot tarzini vujudga keltirdi. Daryo bo'yisi, cho'l va tog' oldi, ko'l atroflarida ovchilik, balikchilik bilan shug'ullangan jamoalarning madaniyatlarini rivojlanib borgan sayin chovachilik ham rivojlanib bordi[4].

Jumladan, Xorazm hududida Amudaryoning quiy havzasida topilgan Kaltaminor madaniyati mil. av. IV-III ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatlaridan biri hisoblanadi[5]. Mil. avv. II-I asrlarda Davan (Farg'ona) da dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Arxeologlar keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, sut va go'sht beradigan qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan soha sifatida bundan 3000-yil oldin shakllangan[6].

Voha va vodiylarning qulay iqlimi, keng yaylovlarning mayjudligi va chorva mollarini boqish uchun o'simliklar dunyosining mo'lligi hamda yaylovlarning mavsumiy xarakteri chovachilikning jadal rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Bu haqda o'rta asr arab muarixlarining

QISHLOQ XO'JALIGI

sayohatnomalari va esdaliklarda hamda keyingi davrdagi bir qancha tarixiy manbalarda ma'lumotlar qayd etiladi. Masalan, "Hudud ul-olam" asarida Surxon vohasida maxsus chorvachilik markazlarining bo'lgani, birlgina Termiz shahridan 30 km shimoli-g'arbda Hoshimgard (hozirgi Termiz-Angor yo'nalishida joylashgan Kaptarxona qishlog'i) shahrida ko'p sonli qo'y suruvlari va qoramol podalari borligi qayd etiladi.

XX asr boshlariga kelganda hozirgi O'zbekiston hududida o'z zamonda an'anaviy mazkur sharoitga moslashgan uch xil xo'jalik mavjud bo'lgan: vohalarda yashovchi o'troq dexkonchilik xo'jaligi, dasht va yarim dashtlarda qisman ko'chib yurgan aholining chorva xo'jaligi, vohalarga yaqin va daryo bo'yini oqimida joylashgan chorva-dexqonchilik xo'jaligi[7]. Yuqoridaq xo'jaliklarda chorvachilikning xo'jalik yuritishdagi yetakchi o'ringa chiqib olishi bevosita iqlim sharoitlari bilan ham bog'liq edi.

XX asrning boshlarida O'rta Osiyo respublikalarining moddiy boyliklari va madaniy salohiyatini markaz yangicha mustamlakachilik siyosatiga bo'yundurishga intilgan[8]. Shu sababli mazkur davr tariximizga o'ta murakkab va ziddiyatlari, turli ijtimoiy guruh va kuchlar siyosiy qarama-qarshiliklar avj olgan "tinch sotsialistik qurilish" yo'liga o'tish davri bo'lib kirdi. Paxta xom ashysining haddan tashqari yetishtirilishi va o'lkanning xom ashyo bazasiga aylantirilishi natijasida qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, xususan, chorvachilik keskin inqirozga uchradi.

Sovet hokimiysi tomonidan 1917-1920-yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar O'zbekistondagi agrar islohotlarning birinchi bosqichi bo'ldi. Bu islohotlarning ikkinchi bosqichi Rossiya imperiyasi hukumati yurgizib kelgan mustamlakachilik siyosatining yer munosabatlari bilan oqibatlarini tugatishga qaratilgan yer-suv islohotining o'tkazilishidan boshlandi[9].

Boshqa tomondan, mazkur davrda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat chorvachilikni inqiroz yoqasiga boshladi. Xususan, ming-minglab chorva mollari qirilib ketdi yoki qo'shni hududlarga olib chiqib ketildi. Misol uchun, Samarqand viloyatidagi ayrim tumanlarda 1917-1920-yillarda chorva mollari 73 foizga kamayib ketgan. Umuman olganda, Turkistonda mazkur yillar oraliqida chorva mollari ikki baravarga qisqargan[10].

Yugorida qayd etilganidek, xususiy chorvachilik o'lkanning asosiy bo'g'ini bo'lgan. Sovet hokimiysi xususiy chorvachilikda chorvalar soni ko'p bo'lganligini inobatga olgan holda aholining chorvalarini davlat chorvachiliga o'tkazish bo'yicha ishlar olib boradi. Buning uchun eng muhim vazifa sifatida mazkur yo'nalishda davlat mexanizmini yaratish qayd etiladi. Bundan tashqari, kadrlar borasida ham muammolar yuzaga kelishi ta'kidlanib, chorvachilik sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, o'lkadagi chorvachilikning asosiy xususiyati shundan iborat bo'lganki, chorvalar poda-poda bo'lib boqilgan. Sovet hokimiysi mazkur chorvalarni davlat tasarrufiga o'tkazish uchun birinchi navbatda mazkur amaliyotni tugatishni maqsad qilgan[11].

Milliy-hududiy chegaralanish ishlari olib borilgandan so'ng zavod, fabrika va yer maydonlari bilan birgalikda chorva mollari ham sovet hokimiyatiga tegishli tashkilotlar o'tasida taqsimlanib olingan. Mazkur taqsimlanishlar natijasida 2590 ming bosh chorva mollari sovet hokimiysi tasarrufiga o'tgan. Xususan, 1926-yilda Buxoro okrugida yer maydonlari va qishloq xo'jalik asboblari bilan birgalikda chorva mollari ham musodara qilingan[12].

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda 1920-1940-yillarda O'zbekistonda agrar sohaning iqtisodiy samaradorligi to'g'risida yakdil fikr mavjud bo'lmagan[13]. O'zSSRda chorvachilik qishloq xo'jaligi tizimi, yerdan foydalanish usullari, xo'jalik hayoti hamda unga SSSRning xomashyo bazasi sifatida qaralgani bilan bevosita bog'liq edi. O'zSSRning barcha rayonlarda ham tabiiy-tarixiy sharoiti bo'yicha chorvachilikni ommaviy ravishda rivojlantirish imkonini mavjud edi. Respublikaning tog' oldi, tog'li va tekisliklarda boqilgan mayda shoxli chorva (qorako'l qo'ylar, dumbali qo'ylar va echkilar) xalq xo'jaligi uchun ustun darajaga ega bo'lgan. Yilqichilik, qoramolchilik va eshak kabi chorvachilikning boshqa turlarini boqish bevosita dehqonchilik ishlariiga bog'liq edi. Boshqacha aytganda, mazkur chorva mollari xo'jalikda yarlarni haydash va yuk tashish ishlariada muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham ko'pincha xo'jaliklar ulardan bog'dorchilik ishlariada va boshqa xo'jalik ishlariada foydalangan. O'zSSRda chorva ozuqasining zaxirasi mavjud bo'lmaganligi va chorva mollarini boqishda maxsus binolarning yetishmovchiligi sababli chorvachilikni tabiiy yaylovlarga ega hududlarda rivojlantirish ko'zda tutilgan. Shu bois, chorvachilikni rivojlantirish

alohida xo'jaliklarda olib borilgan bo'lib, davlatga tegishli chorvachilik tarmog'i keng qamrovga ega bo'limgan[14].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyati yillarda chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi ziddiyatli kechdi. Bu birinchi navbatda sovet hokimiyatining chorvachilik sohasiga doir qarashli vaqt-i-vaqt bilan o'zgarib turganligi bilan bog'liqdir. Xususan, sovet hokimiyatining dastlabki davrida sohaga e'tibor berilmaganligi sababli chorva sonlari kamayib ketdi. Bundan tashqari, ikkinchi jahon urushi munosabati bilan ko'plab chorvalarning O'zbekiston hududidan olib chiqib ketilishi hamda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat natijasida tarmoq inqirozga uchragan. 1920-yillarning o'rtalariga kelib sovet hokimiyati O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish masalasini muhokama qiladi. 1930-yillardan boshlab kolxozi va sovxozi tashkil etilishi natijasida chorvachilik sohasida davlat ulushi oshib ketdi. 1940-yillarda chorvachilik fermalari soni ham oshib bordi va natijada aksariyat chorva sonlari mazkur muassasalarda boqildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.25. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B.138.
2. Ikromov A. Chorvachilik asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996. – B.145-146.
3. Shchekin V.A. Chorvachilik. Maxsus qism (2 nashri). – Toshkent: O'qituvchi, 1968.
4. Шаниязов К. Основные отрасли животноводства в дореволюционном Узбекистане // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1975. – С.83.
5. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С.106.
6. Кармышева Б. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана // Советская этнография. – 1969. – №1. – С. 44.
7. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2003. – B.8.
8. Tilovatov F. Sovet hokimiyatining XX asr 20-30-yillaridagi "madaniy inqilob" siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009. – B.26.
9. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Raximov, Q.Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.280.
10. Jo'rayev N., Karimova Sh. O'zbekiston tarixi. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 78.
11. O'z MA, R.29-fond, 1-ro'yhat, 1578-ish, 44-varaq.
12. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob. – Toshkent, 2019. – B.485-486.
13. Камбаров М. Пути повышения экономической эффективности производства продукции скотоводства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1976. – С.5.
14. O'z MA, R.10-fond, 1-ro'yhat, 789-ish, 2-varaq.